

## SHARTNOMA № 38852

### Joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirish yuzasidan

2022-yil 19-avgust

Farg'ona shahri

Ushbu shartnoma bir tomonidan Farg'ona shahar Xalq ta'limi nomidan bo'lim mudiri G.A.Xalilova vakilligida kelgusida "Buyurtmachi" va ikkinchi tomonidan "TOXIR-MADAD QURILISH" MCHJ nomidan rahbar G.Alijonov vakilligida kelgusida "Pudratchi" o'rta har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomavii-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

#### 1. Shartnoma predmeti.

1.1. "Pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga asosan Farg'ona shahar Xalq ta'limi tasarrufidagi 16-umumiyoq o'rtalim maktab xojatxonasini joriy ta'mirlashni loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

#### 2. Shartnoma bahosi.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha smeta hamda ekspertiza hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar, QQSn hisobga olgan holda jami **145 000 000.00** (bir yuz qirq besh million) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda "Buyurtmachi" va "Pudratchi"ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

#### 3. Hisob-kitob qilish tartibi.

3.1. "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlarni qiymati uchun "Buyurtmachi" pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. "Buyurtmachi" oldindan shartnoma umumiyoq summasini 30 foiz miqdorida **43 500 000.00** (qirq uch million besh yuz ming) so'm avans to'lovini "Pudratchi" hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar haqiqatda bajarilgan ishlarni hajmiga qarab, avans mablag'larini chegirgan holda amalga oshiriladi.

#### 4. Ishlarni bajarish tartibi va muddatlar.

4.1. "Buyurtmachi" tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 20 kun muddat ichida "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlarni yakunlanishi shart.

4.2. "Pudratchi" bajariladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlari hamda amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. "Pudratchi" ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rivoja qilgan holda amalga oshiradi.

#### 5. Tomonlarning huquq va majburiyatlar.

5.1. "Pudratchi" mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga asosan to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi. Loyiha-smeta hujjatlariga mos kelmagan ishlarni "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilinmaydi va shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lar o'tkazib berilmaydi.

5.2. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi, hamda "Pudratchi"dan loyiha-smeta hujjatlariga mos ravishda qurilish ishlarni olib borishni talab qilishga haqlidi.

5.3. "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi"ga ta'mirlash ishlarni bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratib beradi va bajarilgan ishlarni bo'yicha tuzilgan Shabl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan dalolatnoma (qurilish ishlarni belgilagan talablarga mosligini tekshirish dalolatnomasi) asosida bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, "Buyurtmachi" tomonidan alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 3 kun muddat ichida "Pudratchi"ga xabar yuboriladi.

"Pudratchi" tomonidan ushu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bartaraf etilmagan taqdirda "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lar o'tkazib berilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida nazarada tutilgan choralar amalga oshiriladi.

#### 6. Tomonlarning javobgarligi.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar "Pudratchi" tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash ishlarni belgilangan muddatda boshlanmasa va yakunlanmasa, "Pudratchi" bajarilmagan ishlarni qiymatining 0,5 foiz miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun "Buyurtmachi"ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiyoq summasi bajarilmagan ishlarning qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma sharti bo'yicha qurilish ishlarni yakunlanishi belgilangan kundan boshlab kechiktirilgan kun oralig'idagi muddat hisobga olingan holda bir tomonlama amalga oshiriladi.

6.3. "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlarni belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin "Buyurtmachi" tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0,4 foiz miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun "Pudratchi"ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiyoq summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasining 50 foizidan oshmasligi kerak.

6.4. Penyalar to'lanishi taraflarni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

#### 7. Fors-major holatlari.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi, tabiat hodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar, hukumat qarorlari va boshqa yengib bo'lmas kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javohgarlikdan ozod etiladilar.

#### **8. Korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar.**

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va uslbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korruptsiviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarни толади ва уларга риоя етилиши бо'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabдор shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishida pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, takrif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdag'i xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida tassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4 Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5. Taraning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.



## 9. Qo'shimcha shartlar.

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo, taraflarning kelishivi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa "Buyurtmachi" joylashgan hududdagi iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartmorda taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amalda quron hujiyatlari normalariga binoan keltirilviga zararlarni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, hududiy g'aznachilish bo'limida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

#### 10. Tomonlarning manzillari va boshqa rekyizitlari.

«IJROCHI»	«BUYURTMACHI»
<b>"TOXIR-MADAD QURILISH" MCHJ</b>	<b>Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi</b>
Manzil: Marg'ilon sh. Qodiriy ko'chasi 23 uy	Manzil: Farg'ona sh. Sanoat, 17 uy
Tel: 998 91 653 47 40	Tel./faks: +(8 373) 244-33-53
X/r., 2020800600419745001	Shg'h 1000228603400179096300075050
Bank nomi: "HAMKORBANK" ATB Marg'ilon sh filiali	Tashkilotning STIRI : 200150971,
MFO: 00991	IFUT(okonx): 97600
Tashkilotning STIRi: 303 148 359 IFUT(okonx): 61110	Farg'ona shahri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi
	YaG'H: 23 402 000 300 100 001 010
Raxbar: Alijonov	Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM)
	MFO: 00014
	G'aznachilik bo'linmasining STIR: 201122919
	Mudir  A.Xalilova



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI HAQIDA  
HUQUQIY XULOSA  
№ CB2154636447**

**1. Loyihaning turi:** Shartnoma № 38852

**2. Loyihaning nomi:** Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish haqida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Shartnoma loyihasi Farg'ona shahar Xalq ta'limi bo'limi va "TOXIR-MADAD QURILISH" MCHJ o'rtaida 2022-yil 19-avgust kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 19-avgust kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

**4. Loyiha bo'yicha taklif:**

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazilib:

Shartnoma loyihasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga javob berishini va qonunchilikka mos holda tuzilganligi;

tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida belgilanganligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

**X U L O S A:**

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**



**Sh.Ochilov**

19.08.2022



"Tasdiqlayman"  
Farg'onah shahar xalq ta'limi  
bo'limi mudiri

G.Xalilova

2022-yil

19.08.2022 yil

Farg'ona shahri

Farg'ona shahar tasarrufidagi 16-maktab xojatxonasini joriy ta'mirlash ishlari uchun 129002 lot raqamli e'lonning 16.08.2022-yil kungi elektron bayonnomasi muxokama natijalari to'g'risidagi xarid komissiyasining tegishli majlisi

### BAYONNOMA XULOSASI

1. Farg'ona shahar tasarrufidagi 16-maktab joriy xojatxonasini ta'mirlash ishlari uchun mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobi va xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha mos keladi.
2. Farg'ona shahar tasarrufidagi 16-maktab xojatxonasini joriy ta'mirlash ishlari yuzasidan 16.08.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasining elektron bayonnomasi yo'llangan tijorat takliflarni baxolash asosida tuzilgan.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi (O'RQ-684-son) Qonunning 7-bob 62-moddasining 3-va 7-bandariga asosan etender.uzex.uz maxsus axborot portalidagi 16.08.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasi elektron bayonnomasining ikki kunlik muxokama vaqtida xech qanday e'tirozlar kelib tushmaganligi sababli elektron bayonnomada g'olib deb topilgan "TOXIR-MADAD QURILISH" MCHJ bilan belgilangan tartibda 145 000 000,00 ( Bir yuz qirq besh million )so'mlik shartnoma tuzilsin.

Komissiya a'zolari:

SH.Isaqov

A.Umarov

Z.Kasimova

U.Tursunaliyev

Komissiya kotibi A.Aliyeva